



XALQARO ARBITRAJDA ARBITRLARNING JAVOBGARLIGI MASALASI

Muxammadiyev Sindorbek Bobirjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi talabasi

Elektron pochta: 1sindorlawyer99@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7882590>

ARTICLE INFO

Received: 24th April 2023

Accepted: 29th April 2023

Online: 30th April 2023

KEY WORDS

Arbitr, arbitrlarning javobgarligi, arbitrlarning immuniteti, arbitraj, arbitraj reglamenti, arbitrlarning huquqlari, arbitrlarning majburiyatlari.

ABSTRACT

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda xalqaro xususiy munosabatlar alohida o'rin tutadi. Ushbu munosabatlarda vujudga keladigan nizolarni hal etishda "alternative dispute resolution" ning eng keng tarqalgan turi bo'lgan nizolarni arbitrajda hal etish ahamiyati katta hisoblanadi. Ushbu maqolada xalqaro arbitrajda arbitrlarning huquqiy holati, ularning javobgarligi masalasi muammolari va istiqbollari xalqaro arbitraj institutlarining reglamentlari hamda xorijiy mamlakatlarning arbitraj to'g'risidagi qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish orqali yoritib berishga harakat qilingan.

Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlardan biri bu sud-huquq tizimini tubdan yangilash, ushbu sohani sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish hisoblanadi. Bu to'g'risida fikr bildirar ekan prezident Sh.Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Ayni vaqtda hammamizga ma'lumki, bugungi kunda yurtimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonlari yangi, yuksak bosqichga ko'tarilmoqda, bunga hammangiz guvohsiz. Binobarin, sud tizimi faoliyatini tanqidiy qayta ko'rib chiqish, uning natijadorligini tubdan yaxshilash eng dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bunga hayotning o'zi majbur qilmoqda"[1]. Albatta bu sohada chuqur islohotlarni amalga oshirish jarayonida nizolarni hal etishning davlat sudlaridan boshqa muqobil usullarini ham amaliyotga keng joriy etish alohida ahamiyat kasb etuvchi vazifa hisoblanadi. Mamlakatda davlat organlarining aholi bilan muloqotini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash hamda ularning muammolarini hal etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil ishlar amalga oshirilmogda. Shu bilan birga, ushbu sohada islohotlarning hozirgi bosqichi davlat organlarida nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarini fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo'ladigan nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutlarga aylantirish lozimligini taqozo etmoqda. Jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, nizolarni hal qilishning muqobil imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, sudlarda ish hajmini maqbullashtirishda mediatsiya instituti, hakamlik sudlari va xalqaro arbitrajlarining rolini tubdan oshirish ahamiyatlidir [2]. Shundan kelib 2022 — 2026 yillarga



mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining "Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish", -deb nomlangan 15-maqсадida ham nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish g'oyasi ilgari surilgan [3].

Nizolarni hal etishning muqobil usullari orasida arbitraj instituti alohida o'rinni egallaydi. Ushbu institutning mavjudligi va rivojlanganligi o'sha mamlakatda inson, ayniqsa tadbirkor huquqlari yuqori darajada himoya qilinishining belgisi bo'lib xizmat qiladi. Bu, birinchi navbatda, arbitrajning bir qator afzalliklari va bunday institutga nisbatan shakllangan ishonchning tarixiy jihatlari bilan bog'liqdir. Nizolarni arbitrajda ko'rib chiqish mutlaqo ixtiyoriy jarayon bo'lib, nizolashayotgan taraflar o'z xohishlari bilan o'zaro mavjud bo'lgan nizoni ko'rib chiqish uchun mas'ul arbitrni tanlashadi. Arbitrni nizoni ko'rib chiqish jarayonida nizolashayotgan taraflar va o'zi faoliyat yurituvchi arbitraj markazidan (agar institutsional arbitraj bo'lsa) mustaqil holda harakat qiladi. Nizolarni arbitrajda ko'rib chiqishda arbitrning tutgan o'rni nihoyatda katta ekanligini hisobga olsak, arbitrlarning javobgarligi masalasi zamonaviy arbitraj huquqida muhim institut hisoblanadi. Bunday masala juda o'rinli bo'lib, taraflar o'z ishini ko'rib chiqishda, arbitrlarning har qanday suiste'mol qilishiga yo'l qo'ymaslikka, nizoni ko'rib chiqishdagi obyektivlikka qiziqadi. Ushbu kamchiliklarga yo'l qo'yilganda arbitrlarning javobgarligi qay tartibda bo'lishi ham muhim hisoblanadi. Arbitraj to'g'risidagi xalqaro yoxud davlatlarning milliy qonunchiliklarini tahlil qilar ekanmiz, ushbu qonunlar arbitrlarning javobgarligi masalasini inkor etmaydi hamda ushbu javobgarlik fuqaroviy-shartnomaviy va jinoiy ko'rinishlarda bo'lishi mumkinligi anglashiladi. Biroq ushbu turdagi javobgarlik faqatgina arbitrlar tomonidan qasddan sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik uchun mavjuddir. Arbitraj sohasi yaxshi rivojlangan ko'plab mamlakatlarda arbitrlarning javobgarligi maxsus normalar bilan tartibga solinmasdan, aksincha ular umumiy asoslarda jinoiy yoxud fuqaroviy javobgarlikka tortilishi mumkinligi belgilangan. Buning asosiy sababi sifatida shuni keltirishimiz mumkinki, arbitrlar davlat sudyalari kabi maqomga ega hisoblanmaydi va tabiiyki, ular mansabdor shaxs ham emaslar. Shuning uchun ularning javobgarligi umumiy asoslarda belgilanishi lozim. Biroq Yaponiya Jinoyat kodeksining 197-moddasida pra olish jinoyatini sodir etgan mansabdor shaxs yoki arbitrga tegishli jazo qo'llanilishi belgilab qo'yilgan. Ya'ni bu moddaga ko'ra arbitr ham xuddi davlatning mansabdor shaxsi kabi ushbu jinoyat turida maxsus subyekt darajasida qayd etib o'tilgan [4]. Arbitrajda nizolarni hal qilish nizolarni hal qilishning maxsus shakli ekanligidan kelib chiqib, shuningdek uning maqsadi mustaqillik va xolislik, tomonlarga nisbatan betaraflik, hakamlik sudlari va hakamlik muassasalarini tanlash tomonlarning ularga bo'lgan ishonchni hisobga olgan holda o'zlari tomonidan tanlanishini hisobga olib, turli mamlakatlar qonunchiligi arbitrlarning fuqarolik javobgarligiga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. BMT tomonidan qabul qilingan UNCITRAL na'munaviy qonunlarida ham arbitrlarning javobgarligi masalasiga to'xtalib o'tilgan bo'lib, UNCITRAL reglamentining 16-moddasida aynan shu masala tartibga solinadi. Unga ko'ra tomonlar amaldagi qonunga binoan hakamlik sudiga, vakolatli organga va hakamlik sudi tomonidan tayinlangan har qanday shaxsga hakamlik muhokamasi bilan bog'liq har qanday xatti-harakatlar yoki kamchiliklar uchun har qanday



da'vo qo'zg'atish huquqidan to'liq voz kechishadi, qasddan noqonuniy xatti-harakatlar hollari bundan mustasnodir [5]. Amerika Qo'shma Shtatlarida arbitraj sudlari va sudyalari tegishli nizoni hal etishda zarur vazifalarni bajarish uchun qilingan barcha harakatlarida maxsus immunitetga ega hisoblanishadi. Ushbu immunitet AQSh huquq tizimidagi mutlaq sud immuniteti tushunchasidan kelib chiqadi. Aslini olganda AQShda arbitrlarning faoliyati ularning javobgarligini tartibga soluvchi birorta qonun hujjati mavjud emas. Bu masalalar pretsedent orqali hal qilinishi amerika huquq tizimining o'ziga xos belgisidir. Jumladan Bradley va Fisher ishida [6], AQSh Oliy sudi federal sudyalarda mutloq sud immuniteti mavjudligini belgilab berdi. Sudning ta'kidlashicha, sudya yoki sud ijrochisi, sud vazifalarini bajarayotganda, norozi tomonning qarshi harakatlaridan qo'rqmasdan, o'z pozitsiyasi bo'yicha erkin harakat qilishi kerak. AQSh oliy sudi Pierson V. Ray ishida [7] xuddi shunday immunitet mavjudligini yanada mustahkamlab berdi. Oliy Sud izohiga ko'ra mutloq sud immunitetni ta'minlash, bu sud qarorlarining yaxlitligini himoya qilish, adolatni ta'minlash uchun qilinadi. AQShda arbitrlar o'z vazifalarini bajarishda sudyalar kabi bir xil mutloq sud immunitetga ega. AQSh sudlari arbitrlarga ham ushbu immunitetni beradi, chunki bu ularning qarorlarining yaxlitligini himoya qilish uchun zarurdir, shuningdek, bu holatda arbitrlarning sudyalar bilan funksional o'xshashligi alohida qayd etiladi. Jumladan Rubenstein V. Otterbourg ishida [8] Nyu-York shahar fuqarolik sudi Amerika arbitraj assotsiatsiyasiga (AAA) mutloq sud immunitetini beradi, chunki arbitrajlar ham kvazi-sud tashkilotlari hisoblanib sudyalarni himoya qiladigan bir xil immunitet arbitrlarga ham tegishli bo'lishi kerakligi va mutloq sud immuniteti himoya qilinishi kerakligi ta'kidlanadi. Qisqacha qilib aytganda, AQSh huquq tizimida arbitraj tarkibi ham, arbitr ham hakamlik muhokamasi bilan bog'liq har qanday harakatlar yoki harakatsizlik uchun javobgar bo'lmaydi, faqat amaldagi qonun hujjatlarida bunday immunitetni cheklash bo'yicha belgilangan hollar bundan mustasno. Shu bilan birga, nizoda ishtirok etayotgan tomonlar ushbu shaxslarni arbitrlar bilan bog'liq har qanday sud yoki boshqa sud jarayonlarida taraflar yoki guvohlar sifatida jalb qilishlari mumkin emas. Angliyada mavjud bo'lgan arbitraj to'g'risidagi aktga ko'ra arbitrlar o'z faoliyatida mutloq immunitetdan foydalanadilar. Jumladan, 1996-yildagi Angliya arbitraj to'g'risidagi qonunining [9] 29-moddasiga binoan, arbitr hakam sifatida o'z vazifasini bajarishda qilingan yoki o'tkazib yuborilgan barcha narsalar uchun javobgar bo'lmaydi, faqat uning xatti-harakatlari yoki kamchiliklari qasddan sodir etilganligi isbotlangan hollar bundan mustasno. Shunday qilib, Angliyada arbitrlarni faqat qasddan qilingan harakatlari uchun javobgarlikka tortishga yo'l qo'yiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda huquqiy masalalarni hal etishning yangicha usullaridan keng foydalanishga o'tish mamlakatlarning amaldagi sud tizimiga bo'layotgan bosimlarni biroz bo'lsad yengillatishga imkon beradi. Bu borada, shubhasiz, nizoni hal qilishning muqobil usullari katta ahamiyat kasb eadi. Ular orasida arbitraj o'zining anchayin mukammal rivojlangan ishlash tizimi bilan alohida o'rinda turadi. Mamlakatimizda arbitraj huquqini rivojlantirishda, xususan, arbitrlarning javobgarligi masalasini qonuniy jihatdan aniq belgilab qo'yishda jahonning bu sohada keskin rivojlanishga erishgan AQSh, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarning mavjud qonunchiligidagi arbitrlarning javobgarligi va ularning immuniteti masalasiga doir normalarni milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish lozim deb hisoblaymiz.



References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 427
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4754-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son farmoni.
4. Penal code of Japan (Act № 45 of 1907).
<https://www.cas.go.jp/jp/seisaku/hourei/data/PC.pdf>
5. UNCITRAL Arbitration Rules (with new article 1, paragraph 4, as adopted in 2013)
https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media_documents/uncitral/en/uncitral-arbitration-rules-2013-e.pdf
6. Bradley v. Fisher, 80 U.S. 335, 346-47 (1871) in Matthew Rasmussen, Overextending Immunity: Arbitral Institutional Liability in the United States, England, and France, Fordham International Law Journal Volume 26, Issue 6 2002, pg. 1841
7. Pierson v. Ray, 386 U.S. 547 (1967) in Matthew Rasmussen, Overextending Immunity: Arbitral Institutional Liability in the United States, England, and France, Fordham International Law Journal Volume 26, Issue 6 2002, pg. 1842
8. Rubenstein v. Otterbourg, 357 N.Y.S.2d 62 (1973) in Matthew Rasmussen, Overextending Immunity: Arbitral Institutional Liability in the United States, England, and France, Fordham International Law Journal Volume 26, Issue 6 2002, pg. 1845 Arbitration act 1996.
<https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1996/23/section/29>